Aхmedov Икром Акрамович	
O'zbekistonda natijaga yo'naltirilgan budgetlashtirish mexanizmini rivojlantirish.....	1023
Primova Nigora Ikrom qizi	
Kichik biznes korxonalarida B2B bozorini tizimli tashkil etishning uslubiy jihatlari.....	1030
Zakirova Gulnoza Qudratovna	
Current Trends in Agrotourism in Uzbekistan: Demand, Needs, and Motives of Agritourists	1034
Iroda Abdieva Gayrat kizi	
Sovremennoe sostoyanie dostojnogo truda spetsialisov transporta v usloviyah cifravizatsii.....	1039
Абдуллаева Нигора Шамсиддиновна	
Obosnovaniye metodov otsenki sovershenstvovaniya konkurentospособnosti predpriyatiy legkoj promyshlennosti	1043
Tuxtasinova Muxaiё Mirzasultonovna	
Problemye aspekti transformatsii finansovoy otchetnosti biznesa yuridicheskikh лиц	1049
Шин Инесса Олеговна	
Cross-Cultural Management is a Separate Field of Science and Discipline.....	1055
Umarova Zulaykho, Rakhmanova Zilola	
Tadbirkorlik subyektlarida xalqaro sifat standartlarini joriy etish tahlili.....	1058
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni	1062
Jo'rayev Ilhomjon Kamolidinovich	
Iqtisodiy inqiroz davrida kredit xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning xorijiy modellari....	1066
Kurbanov Rustam Radjabovich	
Raqamlı transformatsiya konsepsiyalari va uning ahamiyati.....	1071
Abdurahmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lif tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishning istiqbollari.....	1078
Xalilova Shoxsanam G'ayrat qizi	



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA KONSEPSIYALARI VA UNING AHAMIYATI

Abdurahmonov Abdumalik Abdurashidovich

Raqamli Iqtisodiyot kafedrasini PhD tadqiqotchisi, TDIU

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda raqamli transformatsiyaning o'rni va rivojlanishi, davlatning YAIMga hissasi, davlat boshqaruv organlarida raqamlashtirilganlik darajasi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti "Elektron hukumat" (EDGI) reytingi tahlil qilingan va tasvirlab berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, raqamlashtirish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), "Raqamli O'zbekiston – 2030".

Abstract: This article analyzes and describes the role and development of digital transformation in Uzbekistan, the contribution of the state to GDP, the digital level in state governing bodies and the rating of the United Nations "e-government" (EDGI).

Key words: Digital transformation, digitalization, information communication technologies (ICT), "Digital Uzbekistan – 2030".

Аннотация: В данной статье анализируется и описывается роль и развитие цифровой трансформации в Узбекистане, вклад государства в ВВП, уровень цифровых технологий в органах государственного управления и рейтинг Организации Объединенных Наций "электронное правительство" (EDGI).

Ключевые слова: Цифровая трансформация, цифровизация, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), "Цифровой Узбекистан - 2030".

KIRISH

Raqamli transformatsiya bugungi kunda tobora muhim mavzuga aylanib borayotganligi sababli texnologiyанинг тез sur'atlarda o'zgarishi bilan kompaniyalar raqobatbardosh bo'lish uchun o'zlarining biznes modellarini moslashtirishlari va rivojlantirishlari muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Raqamli transformatsiyaning afzalliliklari samaradorlikni oshirishdan tashqari, mijozlar tajribasini yaxshilash va daromadni oshirishgacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Biroq muvaffaqiyatli raqamli transformatsiyaga erishish murakkab jarayonlarni qamrab oladi va ko'plab kompaniyalar raqamli transformatsiyani amalga oshirishda katta qiyinchiliklarga duch kelishmoqda.

Raqamli transformatsiya jamiyatning barcha jabhalariga, ayniqsa, mamlakat iqtisodiyotiga va yangi tarmoq istiqbollarini, biznes modellarini, qiymat zanjirlarini ochish, mijozlar talablarini qondirish, xizmatlarni yanada samarali taqdim etish, turli potentsial sheriklar o'tasidagi hamkorlik va ma'lumotlar almashishga ta'sir qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARI

Kompaniyaning raqamli transformatsiyasini tahlil qilishdan oldin, "raqamli" so'zi nimani anglatishini tushunish juda muhimdir. McKinsey ta'rifiga ko'ra "raqamli" uchta asosiy funksiyaga ega:¹

- biznes dunyosining yangi yo'nalishlarida qiymat yaratish;
- mijozlar tajribasiga bevosita ta'sir qiladigan jarayonlarni optimallashtirish;
- biznes tashabbusini qo'llab-quvvatlaydigan asosiy imkoniyatlarni yaratish;

Shuningdek, tadqiqotimizda raqamli transformatsiyaning turli xil ta'riflari quyidagi jadvalda o'rganildi:

¹ Digital consulting | McKinsey & Company | McKinsey Digital | McKinsey & Company



1-jadval: Raqamli transformatsiyaning turli xil ta'riflari

Manba	Ta'rif
Westerman et al. (2011 ¹)	“Raqamli transformatsiya – korxonalarning ish faoliyatini yoki imkoniyatlarini tubdan yaxshilash uchun texnologiyadan foydalanish–butun dunyo bo'ylab kompaniyalar uchun dolzarb mavzuga aylanmoqda. Barcha sohalardagi rahbarlar analitik, mobillik, ijtimoiy media va aqlii o'rnatilgan qurilmalar kabi raqamli yutuqlardan foydalamoqdalar va mijozlar bilan munosabatlarni, ichki jarayonlarni va qiymat takliflarini o'zgartirish uchun ERP kabi an'anaviy texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirmoqdalar”
Bouee' and Schaible (2015 ²)	“Biz raqamli transformatsiyani iqtisodiyotning barcha tarmoqlarining izchil tarmogi' va raqamli iqtisodiyotning yangi voqeliklariga moslashtirish sifatida tushunamiz. Tarmoqli tizimlardagi qarorlarga ma'lumotlar almashinuvি va tahlil qilish, variantlarni hisoblash va baholash, shuningdek, harakatlarni boshlash va oqibatlarni kiritish kiradi”
Mazzone (2014 ³)	“Raqamli transformatsiya – bu strategik va taktik jihatdan kompaniya, biznes modeli, g'oyalar jarayoni yoki davom etayotgan raqamli evolyutsiyasi”
Bozorov Furqat Odilovich (2023) ⁴	“Raqamli transformatsiya – keng ma'noda, bu raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali strategiya, modellar, operatsiyalar, mahsulotlar, marketing yondashuvи va maqsadlarini qayta ko'rib chiqish orqali boshqaruv tizimini o'zgartirishdir. Bu savdo, biznes va umuman iqtisodiyotning o'sishini tezlashtirish, shuningdek, notijorat tashkilotlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.”
Michael Wade (2020) ⁵	“Raqamli transformatsiya – bu biznes jarayonlarini, mijozlar tajribasini va biznes modelini takomillashtirish maqsadida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda yangi o'zgarishlarga raqobatbardosh bo'lish uchun rivojlanish jarayoni.”
Грибанов Ю.И. (2019) ⁶	“Raqamli transformatsiya – bu korxonaning biznes jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish. Ushbu yondashuv nafaqat zamonaviy apparat yoki dasturiy ta'minotni o'rnatishni, balki menejment, korporativ madaniyat va tashqi aloqa yondashuvlarida tub o'zgarishlarni ham o'z ichiga oladi. Natijada, har bir xodimning mahsuldarligi va mijozlar ehtiyojini qondirish darajasi oshadi va kompaniya ilg'or va zamonaviy tashkilot sifatida obro'ga ega bo'ladi”.

- 1 Westerman G, Calme'jane C, Bonnet D, Ferraris P, McAfee A (2011) Digital transformation: a roadmap for billion-dollar organizations (PDF). MIT Center for Digital Business and Capgemini Consulting, Paris
- 2 Boue'e CE, Schaible S (2015) Die Digitale Transformation der Industrie. Roland Berger Strategy Consultants und Bundesverband der Deutschen Industrie e.V., Berlin
- 3 Mazzone DM (2014) Digital or death: digital transformation: the only choice for business to survive smash and conquer. Smashbox Consulting
- 4 Базаров Фуркат Одилович/“Экономика и социум” №4(107) 2023/Сущность цифровой трансформации и ее роль в развитии экономики регионов.
- 5 Micheal Wade (2020)/ “Digital Vortex: How Today's Market Leaders Can Beat Disruptive Competitors at Their Own Game” Michael Wade (imd.org).
- 6 Грибанов Ю.И., Шатров А.А. Сущность, содержание и роль цифровой трансформации в развитии экономических систем // Вестник Алтайской академии экономики и права. – 2019. – № 3-1. – С. 44-48.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolamizni yozish uchun olib borilgan tadqiqot jarayonida ilmiy kuzatish, mavhum-mantiqiy fikrlash, qiyosiy va tizimli tahlil, tahlil va sintez, tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya usullari qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda raqamli transformatsiya biznesning turli sohalarida keng qo'llanimoqda, chunki bu korxonalarga mijozlarga xizmat ko'satishni yaxshilash va ularning xatti-harakatlarini tushunish uchun ishlatalishi mumkin bo'lgan mijozlar ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu ma'lumotlardan mijozlar ehtiyojlari to'g'risida bashorat qilish uchun ham foydalanish mumkin, bu esa biznesning raqobatbardosh bo'lishiga va yangi xizmatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Misol uchun, muvaffaqiyatli biznes modelini raqamlashtirish uchun, birinchidan, dastlabki vaziyat va muammoga mos yechimni qo'llash uchun bir kompaniya tahlil qilinishi kerak, keyin maqsad va yechimlar usuli oldinga qo'yiladi, nihoyat, raqamlashtirish rejasi amalga oshiriladi.²


2 Daniel R. A. Schallmo & Christopher A. Williams (auth.) 2018. Digital Transformation Now: Guiding the Successful Digitalization of Your Business Model. <https://www.pdfdrive.com/digital-transformation-now-guiding-the-successful-digitalization-of-your-business-model-e158455095.html>



Raqamli transformatsiya – bu tashkilotlarning o‘z operatsiyalarini o‘zgartirish va mijozlarga yaxshiroq xizmat ko‘rsatadigan yangi biznes modellarini yaratish uchun raqamli texnologiyalarni qabul qilish jarayonini tavsiflash uchun ishlatalidigan atama hisoblanadi. Texnologik o‘zgarishlarning ortib borayotgan sur’ati bilan raqamli transformatsiya kompaniyalar uchun o‘z sohalarida raqobatbardosh va dolzarb bo‘lib qolishning asosiy strategiyasiga aylandi.

Raqamli texnologiyalarni qo‘llagan va biznes modellarini shunga mos ravishda moslashtirgan kompaniyalar o‘z faoliyatida sezilarli yaxshilanishlarni, shuningdek, mijozlar ehtiyojini qondirish va mijozlarni sodiqligini oshirish kabi foydali natijalarga erishishdi. Misol uchun, raqamli marketing strategiyalarini amalga oshirgan kompaniyalar yangi auditoriyalarni qamrab olish va mijozlar bilan yanada samarali muloqot qilish imkoniga ega bo‘lishdi, ta’minot zanjiri operatsiyalarini raqamlashtirganlar esa samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirishga muvaffaq bo‘lishdi.

So‘nggi tadqiqotlarga ko‘ra, raqamli texnologiyalarni joriy etish dunyoning yetakchi mamlakatlari iqtisodiyotining o‘sishiga ijobji ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, makro darajada bu butun mamlakat iqtisodiyotining o‘sishiga ta’sir qiladi. Jahan banking prognoziga ko‘ra, 2030-yilga kelib raqamli texnologiyalarning jahon yalpi ichki mahsulotining o‘sishiga qo‘shtigan hissasi taxminan 30% ni tashkil qiladi.



1-rasm: Raqamli texnologiyalarning global YAIM o‘sishiga qo‘shtigan hissasi % da³

Mamlakatimizda AKT sohasida yaratilgan qo‘shilgan qiymatining O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining (YAIM) umumiy hajmiga nisbatiga nazar soladigan bo‘lsak, 2017-yilda ushbu ko‘rsatkich 2,069% ga eng yuqori darajaga yetganini va keyin yana pasayishni boshlaganini ko‘rish mumkin. Shunga qaramay, ko‘rsatkich 2022-yilda 1,863% gacha ko‘tarildi. 2023-yilda esa mazkur ko‘rsatkich 1,9 % ni tashkil etdi.⁴



2-rasm: Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YIMdagi ulushi (yillik)⁵

3 World Bank. World development report 2016: Digital dividends. – 2016. [Электронный ресурс] – Режим доступа: <https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2016>.

4 https://stat.uz/img/press-relizlar/02_-vvp_press-reliz-2023-g__uzb.pdf

5 siis (stat.uz)



Raqamli transformatsiya elektron hukumatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Har 2 yilda bir marta Birlashgan Millatlar Tashkiloti Iqtisodiy va ijtimoiy ishlar departamenti (UN DESA) tomonidan olib boriladigan Elektron hukumat so'rovnomasini (E-government Survey)ning navbatdagi natijasi e'lon qilindi. Bunda 2020-yil 87-o'rinda bo'lgan O'zbekiston, 2022-yilda BMTga a'zo 193 ta davlat orasida 69-o'rinni egallab, 2020-yilga nisbatan 18 pog'onaga ko'tarildi.

EGDI – elektron hukumat rivojlanishini baholash uchta yo'naliш bo'yicha amalga oshiriladi:

- Onlayn xizmatlarni taqdim etish (online service index – OSI);
- Telekommunikatsiya infratuzilmasi (telecommunication infrastructure index – TII);
- Inson kapitali (human capital index – HCI).

Amalga oshirilgan ishlar natijasi o'rganiлganda 2022-yil O'zbekistonning EGDI ko'rsatkichi 0,72 /69 o'rinni (2020-yilda – 0,66 / 87-o'rindan) tashkil etib, dunyo bo'yicha o'rтacha 0,60 dan yuqoriladi.

Sezilarli o'zgarish telekommunikatsiya infratuzilmasi subindeksida kuzatildi. Bunda telekommunikatsiya subindeksi 0,47 dan 0,65 ga ko'tarildi. Shuningdek, inson kapitali indeksida ham 0,77 ga o'sish kuzatildi (2020-yilda – 0,74).⁶

1-jadval: O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti "Elektron hukumat" (EDGI) reytingi⁷

Country	Rating class	EGDI rank	Subregion	OSI value	HCI value	TII value	EGDI (2022)	EGDI (2020)
Kazakhstan	V3	28	Central Asia	0.9344	0.9021	0.7520	0.8628	0.8375
Armenia	HV	64	Western Asia	0.7221	0.7945	0.6925	0.7364	0.7136
Uzbekistan	HV	69	Central Asia	0.7440	0.7778	0.6575	0.7265	0.6665
Republic of Moldova	HV	72	Eastern Europe	0.7380	0.8613	0.5760	0.7251	0.6881
Mongolia	HV	74	Eastern Asia	0.6263	0.8391	0.6973	0.7209	0.6497
North Macedonia	H3	80	Southern Europe	0.7020	0.7562	0.6417	0.7000	0.7083
Kyrgyzstan	H3	81	Central Asia	0.6176	0.8119	0.6637	0.6977	0.6749
Azerbaijan	H3	83	Western Asia	0.6119	0.7932	0.6761	0.6937	0.7100
Paraguay	H3	94	South America	0.6059	0.6947	0.5989	0.6332	0.6487
Bolivia (Plurinational State of)	H2	98	South America	0.5193	0.7483	0.5818	0.6165	0.6129
Bhutan	H2	115	Southern Asia	0.5996	0.5305	0.5261	0.5521	0.5777
Botswana	H1	118	Southern Africa	0.2740	0.6932	0.6814	0.5495	0.5383
Rwanda*	H1	119	Eastern Africa	0.7935	0.5322	0.3209	0.5489	0.4789
Nepal*	H1	125	Southern Asia	0.4592	0.5636	0.5123	0.5117	0.4699
Tajikistan*	H1	129	Central Asia	0.3968	0.7380	0.3770	0.5039	0.4649
Zambia*	H1	131	Eastern Africa	0.4414	0.6744	0.3909	0.5022	0.4242

OSI qiymati – bu onlayn xizmatlar indeksi (Online Service Index) doirasida mamlakatga berilgan qiymat. U 0 dan 1 gacha o'zgarib turadi va eng past umumiy ballni olib tashlab, umumiy ball asosida hisoblanadi.

HCI qiymati – bu inson kapitali indeksi (Human Capital Index) bilan bog'liq qiymat. Shuningdek, u 0 dan 1 gacha o'zgarib turadi va mamlakatda inson kapitali darajasini aks ettiradi.

TII qiymati – bu telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksi (Telecommunication Infrastructure Index) bilan bog'liq qiymat. Shuningdek, u 0 dan 1 gacha hisoblab chiqiladi va mamlakatdagi telekommunikatsiya infratuzilmasini baholaydi.

O'zbekistonning elektron hukumat reytingida ijobiy natijalarga erishishi mamlakatimizda "Raqamli O'zbekiston – 2030" davlat dasturi doirasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilgani bilan chambarchas bog'liq. Mazkur dastur doirasida asosan aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatishda inson qadri tamoyiliga asoslanish sari katta qadam tashlandi. Xususan, fuqarolar yangi xizmatlar bilan boyib borayotgan my.gov.uz – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı orqali hayotiy vaziyatlarda ko'p duch kelinadigan 340 dan ziyod elektron davlat xizmatlaridan onlayn foydalanish imkoniyatiga ega bo'lilar.

⁶ Data Center (un.org)

⁷ Web version E-Government 2022.pdf (un.org)

3-rasm: O'zbekiston Respublikasi EDGI (E-Government Development Index) reytingi⁸

Ushbu xalqaro reyting ko'rsatkichlari asosida O'zbekistondagi davlat va xo'jalik hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida (keying o'rinnlarda – davlat tashkilotlari) raqamli transformatsiya holatini reyting baholash metodikasi ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur metodika doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda.

2023-yil I yarim yillik yakuni bo'yicha raqamli transformatsiya holatini reyting baholash jarayonida 43 ta davlat organi, 38 ta xo'jalik organi va 14 ta mahalliy hokimliklar: jami 95 ta davlat tashkilotlari qamrab olindi. Reyting baholash ishlari 5 ta yo'nalishda amalga oshirildi: Ochiqlik va elektron ishtirok; Elektron davlat xizmatlari; Axborot xavfsizligi; Faoliyatning raqamlashtirilganligi; Tashkiliy masalalar.

Reyting natijalari quyidagi tartibda 3 ta toifaga ajratiladi:

- 71 dan 100 ballgacha "yashil" (yaxshi);
- 55 dan 71 ballgacha "sariq" (qoniqarli);
- 55 dan pasti – "qizil" (qoniqarsiz).

1. Bojxona qo'mitasi	94.38%	1. "Navoiy KMK" AJ	95.26%	1. Toshkent shahar hokimligi	79.97%
2. Davlatlik agentligi	92.16%	2. "Olmaqliq KMK" AJ	94.46%	2. Farg'onha viloyati hokimligi	74.53%
3. Soliq qo'mitasi	86.5%	3. "Asakabank" AJ	91.84%	3. Buxoro viloyati hokimligi	72.24%
4. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi	84.82%	4. "Hududgazta'minot" AJ	80.91%	4. Toshkent viloyati hokimligi	70.8%
5. Adliya vazirligi	84.78%	5. "O'zsanoatqurilishbank" ATB	79.06%	5. Navoiy viloyati hokimligi	70.19%
6. Sport vazirligi	82.75%	6. "Aloqabank" AT	76.71%	6. Jizzax viloyati hokimligi	65.05%
7. Ormon xo'jaligi agentligi	82.45%	7. "Uzbekistan Airways" AJ	76.32%	7. Namangan viloyati hokimligi	64.58%
8. Bilimni baholash agentligi	81.74%	8. "Mikrokreditbank" ATB	75.41%	8. Samarqand viloyati hokimligi	64.34%
9. O'zgidiromet	80.41%	9. "O'zbekneftgaz" AJ	73.92%	9. Qashqadaryo viloyati hokimligi	62.86%
10. Kon-geologiya vazirligi	78.06%	10. "O'zbekgidroenergo" AJ	73.49%	10. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi	60.82%
11. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi	77.31%	11. "O'zagrolizing" AJ	72.87%	11. Xorazm viloyati hokimligi	60.43%
12. Oliy attestatsiya komissiyasi	76.44%	12. "O'zsuvta'minot" AJ	72.28%	12. Sirdaryo viloyati hokimligi	58.88%
13. Qishloq xo'jaligi vazirligi	76.27%	13. "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ	71.62%	13. Andijon viloyati hokimligi	50.9%
14. "O'zarxiv" agentligi	76.07%	14. "Issiqqlik elektr stansiyalari" AJ	70.62%	14. Surxondaryo viloyati hokimligi	44.5%

4-rasm: Davlat tashkilotlarining raqamli transformatsiya holati reytingi

⁸ Yangiliklar | O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti "Elektron hukumat" reytingidagi o'rni sezilarli darajada ko'tarildi (egov.uz)



Davlat organlari orasida eng yuqori natija Bojxona qo'mitasi tomonidan ko'rsatildi – 94,38 ball, ikkinchi o'rinni 92,16 ball bilan Davaktivlariiga, uchinchi o'rinni 85,97 ball bilan Soliq qo'mitasi egalladi. Raqamli transformatsiyaning vazifalaridan yana biri bu hodimlarda yangi ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish zaruriyati hamda ma'lumotlarni samarali boshqarish va ulardan axloqiy va amaldagi qonunlar va qoidalarga muvofiq foydalanishni ta'minlash zarurati hisoblanadi. Bundan tashqari, kompaniyalar raqamli transformatsiya tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uchun yangi texnologiyalar va resurslarga sarmoya kiritishga tayyor bo'lishlari kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Muvaffaqiyatli raqamli transformatsiyaga erishish uchun kompaniyalar avvalo o'z maqsad va vazifalarini aniq tushunishlari kerak:

1. Raqamli texnologiyalardan foyda ko'rishi mumkin bo'lgan biznes sohalarini aniqlash, shuningdek, ushbu texnologiyalar taqdim etadigan o'ziga xos qiyinchiliklar va imkoniyatlarni tushunishni anglatadi. Shu sababli kompaniyalar raqamli transformatsiyani amalga oshirish uchun yo'l xaritasini ishlab chiqishlari mumkin, jumladan, zarur resurslar va potensiallarni aniqlash va muvaffaqiyat uchun aniq ko'rsatkichlarni belgilash shular jumlasiga kiradi.
2. Muvaffaqiyatli raqamli transformatsiyaning yana bir muhim omili hamkorlik va muloqotga e'tibor qaratishdir. Bu xodimlar va mijozlardan yetkazib beruvchilar va hamkorlargacha bo'lgan o'zgarishlar jarayoniga tashkilot bo'y lab manfaatdor tomonlarni jalb qilishni anglatadi. Hamkorlik va muloqot madaniyatini yuksaltirish orqali kompaniyalar hamma bir xil maqsadlar sari harakat qilishini va o'zgarishlarni tahlil qilish va qo'llab-quvvatlashni ta'minlashi mumkin.
3. Raqamli transformatsiya bilan bog'liq jihatlardan biri, xususan, ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik bilan bog'liq xavflar ham mavjud. Kompaniyalar maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish, shuningdek, tegishli qoidalar va standartlarga rioya qilish uchun mustahkam tizimlar va jarayonlar mavjudligini ta'minlashi maqsadga muvofiqdir.
4. Kompaniyalar o'zgaruvchan bozor sharoitlari va mijozlar ehtiyojlariga javoban o'z strategiyalarini moslashtirish va rivojlantirishga tayyor bo'lishi lozim.

Bugungi tez sur'atda o'zgaruvchan biznes landshaftida, tashkilotlar raqobatbardosh bo'lishi uchun raqamli transformatsiyani qabul qilishlari majbur bo'lishmoqda. Raqamli transformatsiya – bu biznesning har bir jabhasiga raqamli texnologiyalarni integratsiyalash jarayoni bo'lib, u qanday ishlashini va mijozlarga qiymat berishini tubdan o'zgartiradi.

"Raqamli inqilob" natijasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning aksariyati avtomatlashtirilgan xizmatlar orqali amalga oshirilmoxda. Bu, o'z navbatida, aholiga xizmat ko'rsatish va byurokratiya jarayonida odamlarning ishtirokini kamaytiradi, aholining hayot sifati va farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.⁹

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Digital consulting | McKinsey & Company | McKinsey Digital | McKinsey & Company.
2. Westerman G, Calme'jane C, Bonnet D, Ferraris P, McAfee A (2011) Digital transformation: a roadmap for billion-dollar organizations (PDF). MIT Center for Digital Business and Capgemini Consulting, Paris.
3. Boué'e CE, Schaible S (2015) Die Digitale Transformation der Industrie. Roland Berger Strategy Consultans und Bundesverband der Deutschen Industrie e.V., Berlin.
4. Mazzone DM (2014) Digital or death: digital transformation: the only choice for business to survive smash and conquer. Smashbox Consulting.
5. Базаров Фуркат Одилович/"Экономика и социум" №4(107) 2023/Сущность цифровой трансформации и ее роль в развитии экономики регионов.
6. Micheal Wade (2020)/ "Digital Vortex: How Today's Market Leaders Can Beat Disruptive Competitors at Their Own Game" Michael Wade (imd.org).
7. Грибанов Ю.И., Шатров А.А. Сущность, содержание и роль цифровой трансформации в развитии экономических систем // Вестник Алтайской академии экономики и права. – 2019. – № 3-1. – С. 44-48.
8. Daniel R. A. Schallmo & Christopher A. Williams (auth.) 2018. Digital Transformation Now: Guiding the Successful Digitalization of Your Business Model. <https://www.pdfdrive.com/digital-transformation-now-guiding-the-successful-digitalization-of-your-business-model-e158455095.html>.

9 Тешабаева О.Н., Йулдашева Г.И. Развитие цифровой экономики Республики Узбекистан // Universum: экономика и юриспруденция : электрон. научн. журн. 2020. № 7 (72). URL: Развитие цифровой экономики Республики Узбекистан (7universum.com)



9. World Bank. World development report 2016: Digital dividends. – 2016. [Электронный ресурс] – Режим доступа: <https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2016>.
10. https://stat.uz/img/press-relizlar/02_-vvp_press-reliz-2023-g__uzb.pdf.
11. siis (stat.uz).
12. Data Center (un.org).
13. Web version E-Government 2022.pdf (un.org).
14. Yangiliklar | O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti "Elektron hukumat" reytingidagi o'rni sezilarli darajada ko'tarildi (egov.uz).
15. Тешабаева О.Н., Йулдашева Г.И. Развитие цифровой экономики Республики Узбекистан // Universum: экономика и юриспруденция: электрон. научн. журн. 2020. № 7 (72). URL: Развитие цифровой экономики Республики Узбекистан (7universum.com).

Yashi

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

